

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TADBIRKOR AYOLLARNING O'RNI**Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li**

Jizzax Politehnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası assistenti

Email: baytanovorol@gmail.com**Xo'jabekova Ulug'oy Ilhom qizi**

Servis fakultet buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 531-22- guruh

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi xotin-qizlarni tadbirkorlik bilan shug'ullanishini rag'batlantirish va ular uchun amaliy yordam qilish ya'ni qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari keng yoritilgan. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligi qo'llab-quvvatlash va ularga munosib daromad olishi uchun sharoit yaratib berish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Qolaversa, davlatimiz tomonidan ayol tadbirkorlar uchun biznesda barqarorlikni saqlab qolish hamda tadbirkorligini boshlash va rivojlantirish maqsadida beriladigan imtiyozlar va subsediylar haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini soha iqtisodiyotidagi o'rni va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari muammolari o'rganilib ilmiy asoslangan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, biznes, kichik biznes, ijtimoiy soha, jismoniy shaxs, xususiy tadbirkorlik.

Ma'lumki, yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xotin-qizlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirish jahon miqyosida davom etayotgan muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ayollar yurtimizning mehnatga layoqatli va iqtisodiy jihatdan faol aholisining katta qismini tashkil etadi. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga kompleks yondashuvni ishlab chiqish, ayollar tomonidan boshqariladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularga axborot, bozor, ta'lim va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini berish va biznes faoliyatini ayollar orasida faol ommalashtirish masalalri bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash va ular uchun munosib bo'lgan turmush sharoitini yaratish ijtimoiy sohaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning ijtimoiy faolligiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Prezidentimizning 2018 yil 2 fevraldagi — Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5325-sonli Farmoni, shuningdek, 2019 yil 7 martdagi «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Ushbu Farmonlarni qabul qilishdan asosiy maqsad, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, ularning oila va jamiyatdagi o'rni va mavqeyini mustahkamlash, salohiyatini to'la namoyon etishi, oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Tadbirkorlik o'zi nima? Tadbirkorlik inglizcha so'zdan olingan bo'lib bandlik degan ma'noni anglatadi. Bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxs esa tadbirkor deb yuritiladi. Tadbirkorlik bugungi rivojlangan O'zbekiston fuqarolari ko'p ishlatadigan jumлага aylanib bo'ldi. Respublikamizda hozirgi kunda tadbirkorlik bilan

shug'ullanmoqchi bo'lgan insonlar uchun qanchadan qancha imkoniyatlar eshigi ochib qo'yilgan. Tadbirkor bo'lish istagida bo'lgan insonlar bu imkoniyatlardan samarali foydalanishmoqda. Hozirgi paytda mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan alohida e'tibor sabab, tadbirkor ayollar soni yildan yilga o'sib bormoqda. Bugungi kundagi davr o'zgarishlari va globallashtirish jarayonlarining kengayib borishiga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ayollarning o'rnini belgilash va bu borada hal etilishi zarur bo'lgan muammolar hamon o'z yechimini kutmoqda. Ma'lumki, O'zbekistonda xotin-qizlarning mavqei va rolini yuksaltirish, huquq hamda manfaatlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, umuman, hayotning barcha jabhasini modernizatsiya qilishdagi ishtirokini kengaytirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratilgan. O'zbekistonda bugungi kunda mamlakat aholisining 17 mlndan ziyod qismini xotin-qizlar tashkil etadi, tadbirkorlikda ayollarning ulushi esa kichik biznes vakillari umumiy sonining 37 foiziga teng. Ushbu yo'nalish oldida turgan ustuvor vazifalardan biri tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida xotin-qizlar ulushini 40 foizga yetkazishdir. Tadbirkorlik bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va oshirish maqsadida tadbirkorlik bo'yicha qisqa o'quv kurslari shakllantirilmoqda. Qolaversa, "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin qizlarni bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish borasida turli xil amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda. Shuni aytib o'tish kerakki, mahalla tomonidan ayollar uydan chiqmagan holda tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun imkoniyatlar yaratilgan. Misol uchun aytib o'tadigan bo'lsak uyning hovlisida issiqxona qurib va u orqali daromad olish mumkin. Mahalla moliyaviy jihatdan imkoniyati cheklangan oilalar uchun tadbirkorlik uchun zarur bo'ladigan uskunalar bilan ta'minlashi mumkin. Agarda mahalla biror oila yoki ayol uchun inkovator, jo'ja ochadigan mashina berilsa, u orqali ayol o'z tadbirkorligini boshlashi va daromad olishi mumkin albatta. Bundan tashqari "Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish dasturlarini samarali amalga oshirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun mikro kreditlar ajratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori bilan Tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlarga mikro kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan. Nizomga ko'ra, tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlar, shuningdek, mikro firma va kichik korxonalar ta'asis etgan shaxslar (qarz oluvchilar) kredit olish uchun "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki yoki aksiyadorlik-tijorat Xalq bankiga elektron ariza bilan murojaat qiladi. Bundan tashqari "Xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va ularni qo'llab-quvvatlash" uchun ajratiladigan imtiyozli kreditlar ham mavjud bo'lib, imtiyozli kreditlar yillik 14 foiz stavkada 3 oydan 6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga:

-Jismoniy shaxs sifatida tadbirkorlikni amalga oshiruvchi xotin-qizlarga 33 million so'mgacha bo'lgan miqdorda (garov ta'minotisiz);

-Xotin-qizlar rahbarligidagi tadbirkorlik sub'ektlariga: 225 million so'mgacha bo'lgan miqdorda ajratiladi (Qonunchilikda belgilangan garov ta'minot turlarini taqdim etgan holda).

Kreditlar yagona elektron onlayn platforma (oilakredit.uz) orqali to'liq raqamlashgan holda ajratiladi. Shuni alohida takidlab o'tish joizki bugungi kunda ayollar orasida biznes va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida quyidagi o'quv kurslari o'z faoliyatini olib bormoqda :

- Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ma'qullangan dasturlar asosidagi o'quv kurslari;
- «Ishga marhamat» monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o'qitish maskanlari va Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari yoki nodavlat ta'lim muassasalarining kasbga o'rgatish o'quv kurslarining maxsus o'qitish dasturlari.

O'z mehnat va tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun kasb-hunar va tadbirkorlikni o'rganish ishtiyoqida bo'lgan 304 ming 891 nafar xotin-qizlar "Ishga marhamat" monomarkazlarida, kasb-hunar maktablarida mehnat bozori talab etayotgan kasb-hunarga o'qitildi. Oxirgi 2,5 yil davomida 473 ming 659 nafar xotin-qizlar doimiy ish o'rinlariga joylashtirildi. 230 mingdan ortiq xotin-qizlar jamoat ishlariga jalb etildi. Bugungi kunda 14 ming 693 nafar xotin-qizlar "Hunarmand" uyushmasiga a'zolikka jalb etilgan bo'lib, ularga 21 ming 879 nafar shogird birlashtirildi.

Tadbirkor ayollar soni yildan yilga ko'paymoqda. Xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida "Har bir oila – tadbirkor" dasturi ishlab chiqildi. Oxirgi 2,5 yil mobaynida tijorat banklari va Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan 496 ming nafar xotin-qizga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 9,7 trillion so'm kreditlar ajratildi. 108 ming nafardan ziyod xotin-qizga asbob-uskunalar uchun subsidiya ajratildi. Xususan, 2022 yilda bu maqsad uchun 39,9 mingdan ziyod xotin-qizlarga 164 milliard so'mga yaqin, 2023 yil 5 oyida 16 ming 165 nafariga 66,1 milliard so'm subsidiya ajratildi. Bu boradagi sa'y-harakatlar natijasida O'zbekistonda tadbirkor ayollar ulushi 37 foizni tashkil etmoqda.

Tadbirkorlikni, hususan, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- gender tenglik va xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish;
- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mikrokreditlash tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish;
- ayollar tadbirkorligi xalqaro standartlari va bu borada milliy qonunchilikni takomillashtirish;
- xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlari va tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan e'tibor, bu borada qonun hujjatlarini takomillashtirish va mustahkam huquqiy kafolatlarni yaratish;

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hozirgi davrda bo'layotgan o'zgarishlar va rivojlanish jarayonlari kengaymoqda va albatta kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ayollarning o'rnini ham oshirmoqda. O'tgan bir necha yillar ilgari ayollarga turli cheklovlar bo'lgan bo'lsada hozirga kelib cheksiz imkoniyatlar mavjud. Xususan, ayollar va erkaklar tengligi va ayollarni kamsitishga yo'l qo'ymaslik haqidagi masalalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida va Mehnat kodeksining 6-moddasida mehnatga oid masalalarda xotin-qizlarni kamsitish taqiqlanishi keltirilgan. Ayollar milliy iqtisodiyotni rivojlanish va yangilanish borasidagi chora-tadbirlarda faol ishtirok etar ekanlar, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollar mehnatining tobora ommalashayotganligi haqiqatdir. Ular ham o'z tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib, ko'pgina bo'sh ish o'rinlari yaratishmoqda va o'zlarini ham band qilmoqda bundan tashqari davlatga foyda keltirmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonun manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutini ta' sis etish to'g'risida
2. Hamroyev H. "Tadbirkorlik asoslari-T" Yangi nashr
3. T. Madaliyev " Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashda banklarning o'rni"
4. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi shart-sharoitlar va xususiyatlar" –X. Sultonova
5. Shodmonovna, F. S., & Negmatovich, Y. N. (2021). Agricultural Agrocusters Will Serve Increasing the Efficiency of Innovative Economy. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 938-944.
6. Rakhmonazarov, P., & Akhunova, M. (2019). Theoretical aspects of sustainable development of regional economic ecosystems and assessment methods. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(8), 136-143
7. Khamraeva, S. N. (2021). Forecasting innovative development of infrastructure providing services to agriculture. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(2), 4037-4045.
8. Olgarenko, V. I., Olgarenko, G. V., & Olgarenko, I. V. (2018). A method of integral efficiency evaluation of water use on irrigation systems. *International Multidisciplinary Scientific GeoConference: SGEM*, 18(3.1), 3-9.